

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINI “YASHIL IQTISODIYOT” TUSHUNCHASINI ANGLASHGA O‘RGATISH MASALASI

*Uluxanov Ibroxim Tuxtaxo ‘jaye’vich, NamDPI, professor v.b.
Dehqonboyeva Saida Yahyoxon qizi, NamDPI, 3-bosqich texnologik ta’lim talabasi.*

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mavjud ekologik muammolarning mohiyatini va ularga ilmiy yondashuvni, shuningdek, uning oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, ekologik muammo, issiqxona effekti, salbiy oqibatlar, iqlim o‘zgarishi, texnologik qurilma.

Аннотация. В статье освещаются в процессе подготовки будущих учителей технологии обучить их суть существующие экологические проблемы и научному подходу к нему, а также пути осуществления деятельности, направленной на ее предотвращение.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, экологическая проблема, парниковый эффект, негативные последствия, изменение климата, технологическое устройство.

Annotations. The article covers the essence of existing environmental problems in the process of training future technology teachers and teaching them the scientific approach, as well as ways to carry out activities aimed at its prevention.

Key words: professional training, environmental problem, greenhouse effect, negative consequences, climate change, technological device.

Globalashuv davrida insonlarning hayoti va sog‘ligiga, mol-mulkiga hamda atrof muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday ko‘rinishdagi muammolarni yechimini topishda aholi qatlami orasida bu zaruriatlarning maqsadini naqadar muhimligini tushunib yetilishi shart hisoblanadi[1].

Global isish va yerning iqlim o‘zgarishi global ekologik muammolardan biridir, uning o‘zgarishining sabablari tabiiy bo‘lishi mumkin: quyosh faolligining tsiklik tebranishlari, fasllarning o‘zgarishi va vulqonlar faoliyati. Tabiiy resurslarni qazib olish, elektr energiyasini ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali Sayyora qiyofasini asta-sekin o‘zgartirilmoqda. Iqlim o‘zgarishi uzoq muddatli, sezilmaydigan va bosqichma-bosqich hodisadir. Bu kundalik hayotga ozgina ta’sir qiladi. Ammo olimlar ogohlantirmoqdaki, bu o‘zgarishlarning qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlari allaqachon ko‘rinib turibdi.

Ammo dunyodagi o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi omili bu odamlarning faoliyatidir. Bu isishning sababi issiqxona gazlari bo‘lib, ularning aksariyati tabiatda uchraydi, ammo inson ta’siri atmosferada ularning konsentratsiyasining oshishiga olib keladi. Sayyoradagi haroratga metan, karbonat angidrid, azot oksidi va boshqa gazlar chiqindilari ta’sir qiladi.

Global isishning ta'siri iqlimning isishi bugungi kunda turli xil ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda ulardan eng ahamiyatlisi bo'lgan dengiz sathining ko'tarilishidir. Qisqa davr ichida u yiliga o'rtacha 2,6–2,9 mm ga oshadi, XXI asrning oxiriga kelib u 52-98 sm ga ko'tarilishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Bunga iliq suvning kengayishi, muzliklarning erishi sabab bo'ladi. Natijada odamlarning yashash joylarini yo'qotish bo'ladi. Tez-tez uchraydigan ekstremal ob-havo hodisalari: bo'ronlar, yomg'irlar, toshqinlar, qurg'oqchilik va daryolarning qurishi.

Harorat rejimining o'zgarishi tufayli biologik turlarning yo'q bo'lib ketishi, ayniqsa, qirg'oq zonolari va orollarning aholisi azob chekmoqda. Issiqlik paytida hosil etishmovchiligi tufayli oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishi, ichimlik suvlarini keskin kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Iqlim o'zgarishi odamlarga qanday ta'sir qiladi degan savol bugunda eng dolzarb muammolardan biridir. Issiqlik ko'plab odamlarga, ayniqsa yurak-qon tomir, o'pka va yuqori nafas yo'llari kasalliklariga chalinganlarga salbiy ta'sir qiladi. Ruhiy anomaliyalar, stress va depressiyalarning ko'payishi ilmiy asoslar bilan isbotlanmoqda.

Iqlim o'zgarishini sekinlashtirish uchun odam nima qilishi mumkin? Issiqxona effektini birinchi navbatda karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish orqali samarali natijaga ega bo'lish mumkin. 1992 yilda 160 mamlakat global isishga qarshi asosiy kelishuvni "iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiya"ni qabul qildi. Unga 2012 yilgacha amal qilgan Kioto protokoli, keyinchalik Parij bitimi qo'shildi. Ushbu hujjatlar rivojlangan mamlakatlarni ishlab chiqarish orqali karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga majbur qildi.

Iqlim o'zgarishining ba'zi salbiy oqibatlarini:

- iqlim namligining oshishi, yog'ingarchilikning notekisligining oshishi, qurg'oqchilik va toshqinlarning ko'payishiga olib keladi;

- okean sathining ko'tarilishi, kichik orollar va qirg'oq pasttekisliklarini suv bosishi;

- tirik tabiatga tushkun ta'sir, o'simlik va hayvon organizmlarining yashash muhitining juda tez o'zgarishi;

- muzliklarning erishi, qor ko'chkisi va sel oqimlari xavfining oshishi;

- yomg'ir miqdori va chuchuk suv havzalari hajmining pasayishi, ichimlik suvi tanqisligi;

- mo'tadil iqlimdan tashqari qishloq xo'jaligi hududlarida hosildorlikning pasayishi;

- inson salomatligiga salbiy ta'sir, yurak-qon tomir, aqliy va boshqa ba'zi patologiyalarning ko'payishi;

- aholining oziq-ovqat ta'minotini kamaytirish.

Dunyoning sanoati rivojlangan davlatlarida ishlab chiqarishini modernizatsiyalash asnosida atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni

kamaytirish, o'z aholisi va hududini himoya qilish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir[2,3].

Iqlim o'zgarishini hal qilish uchun atmosferaga carbonat angidrit gazlari oqimini kamaytirish kerak. Buning uchun toza va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, o'rmonlarning kesilishini kamaytirish va ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish kerak.

Issiqxona effekti dastlab er uchun zarur edi: uning yuzasida hayot uchun qulay bo'lgan o'rtacha yillik haroratni yaratdi. Issiqxona gazlari yerning infraqizil nurlanishini ushlab turdi, uning hammasi ham kosmosga chiqmadi va atmosferani isitdi. Sayyoradagi sanoat ishlab chiqarishi issiqxona gazlari kontsentratsiyasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Ular quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: suv bug'lari, bu issiqxona effektining 36-70 foizini tashkil qiladi. Bug' ko'plab sanoat korxonalari, issiqlik energetikasi korxonalari tomonidan mo'l-ko'l ajralib turadi. Ko'mir, neft, gaz va ularni qayta ishlash mahsulotlarini yoqish natijasida chiqariladigan karbonat angidrid (issiqxona ta'sirining 9-26%). Bugungi texnologik qurilmalarning ba'zilarida turli xildagi yoqilg'i mahsulotlarini yoqish orqali bunday ehtiyojlar qondiriladi. SHunday paytlarda qurilmalardan oqilona foydalanib ish ko'rish, ulardagi xavfsizlik qoidalariga to'la rioya qilishlik har bir kishiga qo'yiladigan qat'iy talabdir.

Foydalanilayotgan qurilmalarimizda ishlatiladigan mahsulot tarkibidagi yonmaydigan elementlar kul(A^i - SiO_2 , Al_2O_3 , FeO , CaO , MgO , K_2O) va namlik (W^i - H_2O) dan tashkil topgan. Yoqilg'i mahsulotining asosiy yonuvchi qismi **C** va **H** hisoblanadi. Har bir yoqilg'ining issiqlik berishdan tashqari o'zidan ma'lum darajada kishi organizmi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir etuvchi mahsulot chiqarish xususiyati ham mavjud. Bu ayniqsa uning yonishi jarayonida jadal tus oladi. Tarkibga kiruvchi yonuvchi hisoblangan elementlar yonishi natijasida murakkab kimyoviy birikmalar, yani yuqorida ta'kidlab o'tilganidek tirik organizmlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zaharli gazlar ham hosil bo'ladi.

Ularning yonish jarayonida yana bir hosil bo'layotgan va havo yordamida uzoq masofalarga yetib borish imkoniyatiga ega bo'lgan qismi zaharli gazdir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek u insonlarning nafas olishlari organlari orqali o'pkasiga yetib boradi. Natijada gazdan zaharlanish ro'y beradi. Zaharlovchi bu gazlar tarkib tuzilishi bilan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Ya'ni bu turdagi gazlarning biri ikkinchisiga nisbatan inson organizmini kuchliroq zaharlaydi. SHuning uchun har vaqt bu narsaga jiddiy e'tiborni qaratish lozim. Demak, buni har doimo hisobga olmaslikni esa hech ham iloji yo'q. CHunki, e'tiborsizlik insonning salomatligini yo'qotishiga, aksariyat hollarda og'ir oqibatlariga olib kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun yoqilg'ilardan hamda ularni yoqishda qo'llaniladigan moslamalardan foydalanishda har bir inson ehtiyot bo'lishi, xavfsiz bo'lgan moslamalarni ishlatishi shart.

Aytib o'tilganidek, texnologik qurilmalar, jumladan, issiqlik mashinalari va qurilmalaridan chiqariladigan ikkilamchi mahsulotlar atmosfera basseynida ekologik muammolarni paydo bo'lishida birlamchi sababchilaridan hisoblanadi.

Turli xil yoqilg'i resurslaridan energetik qurilmalarda foydalanilishda hosil bo'ladigan chiqindi mahsulotlarning atrof-muhitga ta'sirining salbiy oqibatlarini natijasi[4,5,6]:

- atmosfera havosining kimyoviy tarkibning o'zgarishi;
- suv va yer qobig'ini ifloslanishi;
- kishi organizmlarining zaharlanishi, turli xil kasalliklar manbalarini paydo bo'lishi;
- qurilmalardan chiqqan zaharli mahsulotlar bilan havoning keskin ifloslanishi;
- ekologik muvozanatning tiklanish murakkablashuvida namoyon bo'ladi.

Atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan e'tiborimizni jalb etgan ikkinchi bir muhim masala ikkilamchi mahsulot(chiqindi)lardan oqilona foydalanishni samarali yo'lga qo'yilishi va unda vujudga kelayotgan ayrim muammolar bo'lib, uni bartaraf etishning yo'llariga qaratilgan[7,8].

Hozirgi kunda aholi qatlami orasida ayrim befarqliklar tufayli yashash joylarida atrof-muhitning ifloslanishi yuz bermoqda. Bundan tashqari maishiy chiqindi mahsulotlarini aralashtirib yuborilishi ularga qayta ishlov berishda qiyinchiliklar kelib chiqmoqda.

Chiqindilar to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan asosiy maqsad chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan xo'jalik faoliyatida oqilona foydalanilishini ta'minlashdan iborat.

Uning mazmunida chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida hisobga olish va nazorat qilish, chiqindilarni ko'mib tashlash va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish, chiqindilarning hosil bo'lishi, ularni to'plash, joylashtirish, tashish, zararsizlantirish, saqlash, qayta ishlash, utilizatsiya va realizatsiya qilish, tarkibida xavfli (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchanlik, tez alanganib yong'in chiqaruvchanlik, reaksiyaga tez kirishuvchanlik, radioaktivlik) xususiyatlardan loaqal bittasiga ega moddalar mavjud bo'lgan, bunday moddalar fuqarolar sog'lig'i va hayotiga, atrof-muhitga o'zi mustaqil tarzda ham, shuningdek boshqa moddalarga qo'shilganda ham bevosita yoki potentsial xavf tug'diradigan miqdorda va shaklda mavjud bo'lgan chiqindilar va ular bilan ishlash faoliyatini ilmiy asoslarga tayangan holda yo'lga qo'yish masalalari yotadi.

6012300- Texnologik ta'lim bakalavriat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar o'zlarining kelajak faoliyatlarida bunday muammoli masalalarga ko'plab duch keladilar. Mutaxassis sifatida bu masalalarni nazariy va amaliy bilim hamda tajribalarga tayangan holdagina yecha olishi va oqibatda muhofaza masalalariga oid har qanday muammoli vaziyatga samarali yechim topa bilishlari lozim deb hisoblaymiz. Yuqori texnologiyalar davri bo'lishiga qaramay bu muammolar har doimo dolzarb bo'lib qoladi hamda samarali yechimga muxtoj.

Demak, muammolar yechimini optimal hal etishda yoqishi va hosil bo'lgan yonish mahsulotlarini atrof muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish, zararli chiqindilar hosil bo'lishini oldini olishning samarali yo'llarini topish, salbiy

oqibatlarni kamaytirishga qo'yiladigan majburiy talablarga qat'iy amal qilish malakasiga ega bo'lishni taqazo etadi. Bunga esa ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladigan qurilmalardan samarali foydalanish, qurilmalarni mukammallashtirish yo'llarini topish, chiqindilarni utilizatsiya qilish yo'llarini yaxshi bilish, ularga oid to'plangan nazariy va amaliy bilimlar hamda tajribalarning ilmiy natijalariga tayangan holda aholi qatlamini bu boradagi madaniyatini oshirish orqaligina erishiladi. Sayyoramizning har bir aholisining bu kichik sa'y-harakatlari isishga qarshi global tadbirlarni to'ldiradi. Butun insoniyatning sa'y-harakatlari sayyoradagi haroratning o'rtacha o'sishini oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi 2025 yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisod yili" deb e'lon qilish nutqi. 2024 yil 20 noyabr. Toshkent shahri.
2. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. "Чиқиндилар тўғрисида". Т.2002.
3. Ulukhanov, I., & Khusayinova, G. (2024). Digitalized learning and its effectiveness in technological education. *Science and innovation*, 3(B4), 236-243.
4. Uluxanov, I. T. X. J., & Ubaydullaev, S. Q. (2021). O'quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari. *Scientific progress*, 2(8), 814-822.
5. Умурзаков, А. Х., Улуханов, И. Т., & Инамидинова, Д. К. (2022). Талабаларда иждокорлик қобилиятини шаклланишида умумтехник фанлар бўйича тизимли фикрлашнинг ўрни. *Механика и технология*, 2(7), 192-194.
6. Tokhtakhojaevich, U. I., Abdurasulovna, K. G., & Kadirovich, U. S. (2022). Pedagogical conditions for the formation of creative competence of students.
7. Uluxanov, I. T., & Sayfitdinov, A. Solutions to certain issues of emergency protection. *Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА*, 21, 356-361.
8. Tokhtakhojaevich, U. I. (2023). Formation of mathematical expression of automatic control systems in students. *World Bulletin of Social Sciences*, 26, 67-71.
9. Khabibullayevich, A. S., Tokhtakhojaevich, U.I.,Ogli, A.D.A., & Zafarzhan, Q.Z. (2023). Spiritual Education of Students in Teaching Drawing Geometry and Computer Graphics. *Global Scientific Review*,16,1-4.
10. Tokhtakhojaevich, U. I., Abdurasulovna, K. G., & Kadyrovich, U. S. (2022). Pedagogical technologies in the formation of creative competence in the educational process. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 5, 22-28.
11. А.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)
12. А.Маткаримов Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. Достижения науки и образования 2017.- №6 (19)
13. А.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)